

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUSIQAVIY TARBIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Sharipov San'atjon Valijonovich

TAFU "Boshlang'ich ta'lim nazaryasi va metodikasi" kafedrası Boshlang'ich ta'limda musiqa o'qitish
metodikasi fani o'qituvchisi

O'roqova Nigina

TAFU-3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqaning maqsad va vazifari o'rgatilib yosh avlodning musiqiy tarbiya ruhida shakillanishi ichki dunyosini boyitish hissiy olamini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim musiqa fanida bola o'zining musiqiy qobiliyati va axloqiy qarashlari asoslari yaratiladi. Biz bu ilmiy izlanishlarimiz natijasida musiqa fanini o'quvchilarga zamonaviy ta'lim sifatida o'rgatib va bu mavzu bo'yicha metodlar ham yaratdik.

Kalit so'zlar: tarbiya, musiqa, metod, innovatsiya, zamonaviy ta'lim, musiqiy tarbiya, estetika, musiqiy madaniyat, ijodiy fikrlash, musiqiy saboqlar, ritm va ohang, milliy qadriyatlar.

Annotation: This article explores the goals and objectives of musical education for primary school students. Music plays an important role in shaping the inner world and emotional development of the younger generation. In primary education, musical subjects help students develop their musical abilities and moral values. As a result of our research, we have also developed methods for teaching music as a modern educational discipline to students.

Keywords: education, music, method, innovation, modern education, musical education, aesthetics, musical culture, creative thinking, music lessons, rhythm and melody, national values.

Аннотация: В данной статье рассматриваются цели и задачи музыкального воспитания у учащихся начальных классов. Музыка играет важную роль в формировании внутреннего мира и эмоционального развития подрастающего поколения. В начальном образовании музыкальные дисциплины способствуют развитию музыкальных способностей и нравственных качеств ребёнка. В результате наших научных исследований были разработаны методы преподавания музыки как современной образовательной дисциплины для школьников.

Ключевые слова: воспитание, музыка, метод, инновация, современное образование, музыкальное воспитание, эстетика, музыкальная культура, творческое мышление, уроки музыки, ритм и мелодия, национальные ценности.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqa fanining maqsad hamda uning vazifalari haqida tushunchalar beririb borilishi kerak. Biz darslarni har doimgidek bir xillikda emas, aksincha, zamonaviy tarzda darslarni olib borgan holda o'quvchilarning o'z iste'dodlarini dars davomida ham namoyish etishlariga yo'l ochib berish lozim. Musiqa fani bu oddiy dars emas bu fan bolalarga did, eshitish, ifodaviylik va his tuyg'ularni

rivojlantirishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu yoshda bolalarning musiqaga bo'lgan munosabati shakllanadi. Musiqa bolaning emotsional olamini boyitadi, axloqiy va estetik tarbiyani kuchaytiradi, til va nutq rivojiga ham yordam beradi (qo'shiq aytish orqali), diqqat va xotirani mustahkamlaydi. Qo'shiq⁴ - tovush hosil qilishning murakkab jarayonlaridan biri bo'lib, asosan ovoz va eshituv organlarining mujjashlashuvi asosini tashkil etadi, ya'ni eshituv apparati va qo'shiqchilik ovozining o'zaro bog'liqligidir.

Kichik yoshdagi bolalar 2-3 ta nota oralig'idagi qo'shiqlarni kuylay oladilar. Bolalar kattalar kuylarini eshitib, keyin o'zlari ham shu kuyni kattalardek kuylashga harakat qiladilar.

Yoshi	Diapazonlari
2-3 yosh	mi l-lyal
3-4 yosh	re l-lyal
4-5 yosh	rel- sil
5-6 yosh	rel -sil (do2)
6-7 yosh	dol(rel)-do2

Maqsadlari:

Boshlang'ich ta'limda musiqaviy tarbiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Estetik⁵ didni shakllantirish – go'zallikni anglash va qadrlashga o'rgatish.
2. Musiqiy savodxonlikni rivojlantirish – ritm, ohang, balandlik, tempo, dinamika kabi asosiy tushunchalarni o'rgatish.
3. Ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash – bolalarda yangi musiqiy obrazlar yaratishga undash.
4. Milliy va jahon musiqasiga hurmatni shakllantirish – xalq qo'shiqlari, mumtoz asarlar, zamonaviy janrlar bilan tanishtirish.

Xulosa qilib shuni aytamizki bu ilmiy maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun yangi metod ishlab chiqdik. Uning nomi: "Meni top". Bunda o'n ikkita o'quvchi ishtirok etadi. O'quvchilar doskaga chiqib doira shaklda, ko'zlari boylangan holda, lekin, bir o'quvchini ko'zi boylanmagan holda stulda o'tirishadi. Ko'zi boylangan o'quvchilar ko'zi boylanmagan o'quvchini ko'rmasliklari kerak bo'ladi. Past ohangda musiqa qo'yiladi va ko'zi boylanmagan o'quvchi ham musiqaga qo'shib kuylaydi. Musiqa to'xtaganda barcha o'quvchilar ko'zlarini ochishadi. So'ng musiqani kim kuylaganini topishadi. Bu metodning maqsadi o'quvchilarni diqqatini jamlashga va jismoniy harakat qilishlariga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova A. "Musiqa tarbiyasi asoslari". – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Xoliqova M. "Bolalar psixologiyasi va musiqiy estetik tarbiya". – Samarqand: Ilm Ziya, 2020.

⁴ Rajabov I. Maqomlar. T: San'at, 2006 yil, 18-bet.

⁵ Muzikalnaya psixologiya: Uchebnoe posobie. / avtor sost. Kadirov R.G. - T. Muzika, 2005 yil 80-bet.

3. Назарова З.Р. "Музыкальное воспитание детей младшего школьного возраста". – Москва: Просвещение, 2017.
4. Мириманова Е.Е. "Психология и музыка: эмоциональное развитие ребёнка". – Санкт-Петербург: Речь, 2018.
5. UNESCO. "The Importance of Music in Child Development". UNESCO.org
6. Музыкальная психология и развитие детей // Научный журнал "Педагогика искусства", №2, 2020.